INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

O‘ZBEK TILI O‘G‘UZ LAHJASI LEKSIKASI VA UNING O‘RGANILISHI

Sobirova Nazokat Ro‘zimboy qizi
Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti 2-bosqich magistranti
nsobirova0106@gmail.com +99891-424-74-90

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada o‘zbek tili o‘g‘uz lahjasi va uning leksikasi haqida ma’lumotlar va o‘g‘uz lahjasining o‘rganilishi haqida ilmiy sharhlar keltirilgan. O‘zbekistonda o‘g‘uz lahjasining areal bo‘linishi, o‘g‘uz lahjasining o‘rganilish masalari, bir nechta lug‘atlar tahlili bo‘yicha tavsiflash va statistik metodlardan foydalanilgan. Maqolaning maqsadi - shevalarni o‘rganilishini kengaytirish va adabiy til uchun neologizmlar o‘rnida shevaga xos so‘zlarni muomilaga kiritsh. Tadqiqot natijalari Xorazm dialektikasi va uning o‘rganilishi masalalariga qo‘shimcha ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘g‘uz lahjasi, Xorazm shevasi, areal bo‘linish, lug‘at, maishiy leksika, tovushlar tizimi, kiyim-kechak nomlari, singormanizm.

Аннотация:В данной научной статье представлены сведения об огузском диалекте узбекского языка и его лексике, а также научные обзоры по изучению огузского диалекта. Для описания ареального деления огузского диалекта в Узбекистане, вопросов его изучения и анализа нескольких словарей использовались описательный и статистический методы. Цель статьи — расширить изучение диалектов и включить в литературный язык слова, характерные для диалектов, вместо неологизмов. Результаты исследования служат дополнительным научным источником по вопросам хорезмской диалектологии и её изучения.

Ключевые слова: огузский диалект, хорезмский говор, ареальное деление, словарь, бытовая лексика, система звуков, названия одежды, сингармонизм.

Abstract: This scientific article provides information about the Oghuz dialect of the Uzbek language and its lexicon, as well as scholarly reviews on the study of the Oghuz dialect. Descriptive and statistical methods were used to analyze the areal division of the Oghuz dialect in Uzbekistan, issues related to its study, and several dictionaries. The aim of the article is to expand research on dialects and introduce dialect-specific words into the literary language instead of neologisms. The results of the study serve as an additional academic source for the study of the Khorezm dialect and its research.

Keywords: Oghuz dialect, Khorezm dialect, areal division, dictionary, everyday vocabulary, sound system, names of clothing, vowel harmony.

Kirish. O‘g‘uz lahjasi, bilamizki, turkiy tillar orasida keng tarqalgan lahjalardan biridir. Ushbu guruhga bir qancha turkiy tillardagi o‘g‘uz guruhiga mansub bir nechta o‘lik va hozirda mavjud bo‘lgan tillar kiradi. Qadimgi turkiy xalqlarning areal bo‘linishi bo‘yicha ushbu guruh vakillari g‘arbiy va qisman janubiy qismlarda yashaganligi bois N.A.Baskakov turkiy bobo tilni guruhlarga ajratganda, o‘g‘uz guruhini ***g‘arbiy turkiy tillar*** guruhi tarkibida keltiradi.[1] O‘g‘uz guruhiga kiruvchi tillar 3 ta katta guruhga bo‘linadi: 1) o‘g‘uz-turkman guruhi: qadimgi tillar – X-XI aslardagi o‘g‘uzlar tili, hozirgi tillar – turkman tili va uning truxman dialekti; 2) o‘g‘uz-bulg‘or guruhi: qadimgi tillar: *pecheneglar, uzlar (qora klobuklar) tili,* b) hozirgi tillar – *gagauz tili, bolqon turklari tili va dialekti;*

[1] Баскаков Н.А. Тюркские языки. -М., 1960.

3) o‘g‘uz-saljuq guruhi: qadimgi tillar: *saljuqiylar, eski usmon tillari;* b) hozirgi tillar – *ozarbayjon, turk tillari*.[2]

O‘zbekiston Respublikasida o‘g‘uz lahjasi vakillari asosan, janubiy qismda: Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako‘l tumanlarida istiqomat qiladilar.[3]

O‘tgan asrda o‘zbek o‘g‘uz lahjasi bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumaladan, G‘ozi Olim Yunusov, E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, keyinchalik Ahmad Ishayev, Yusuf Jumanazarov, Erka O‘rozov, Fattoh Abdullayev, O.Madrahimov va boshqalar mazkur o‘g‘uz lahjasini alohida tadqiq etdilar.

Keyingi yillardagi tadqiqlar esa bir qadar oshgan: lahjadagi har bir xususiyat alohida o‘rganilmoqda. O‘g‘uz lahjasining grammatikasi va leksikasi, shuningdek, onomastika, toponomika, etnonimika va ushbu sohalarning ko‘plab tarmoqlari bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

Xorazm leksikografiyasi bo‘yicha ham qator lug‘atlar e’lon qilingan bo‘lib, shevaga oid, xususan, o‘g‘uz lahjasiga oid so‘zlar va ularning tasnifi keltirilgan. Dastlabki o‘g‘uz leksikasi, xususan, Xorazm leksikasiga oid lug‘atlar sifatida F.Abdullayevning “Xorazm shevalari” lug‘ati va O.Madrahimovning “O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug‘ati”ni keltirishimiz mumkin.[4] Keyingi yillarda esa Sh.Norboyeva, N.Sa’dullayeva, M.Atabayevalar hammuallifligidagi “Xorazm shevalaridagi maqol va iboralarning qisqacha izohli lug‘ati” va “Xorazm shevalari lug‘ati” e’lon qilindi.[5] Bundan tashqari, soha mutaxassislari bo‘lmagan qiziquvchilar tomonidan ham bir nechta lug‘atlar tuzib chiqilgan. Xususan, Sh.Jumaniyozovning “Xorazm shevasi kichik lug‘ati”, M.Saparniyazova, M.Sabirovalarning “Onaso‘z” va N.Atajanov, T.Atajanovlarning “Xorazm shevasi lug‘ati” kabilar shu turdagi lug‘atlardandir.[6]

Adabiyotlar tahili. Xorazm o‘g‘uz lahjasi leksikasi haqidagi dastlabki yirik tadqiqotlari olim Fattoh Abdullayev nomi bilan bog‘liq.

Fattoh Abdullaev – 1914-yilning martida Namangan shahrida tug‘ilgan. U 1946-yilda “O‘zbek tilida arabizmlar” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1962-yilda “Xorazm shevalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Olim o‘zbek tili tarixi, dialektologiyasiga bag‘ishlangan “Eski o‘zbek tili” (1959), “Xorazm shevalari” (1961), “Xorazm shevalari fonetikasi” (1967), “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi” (1978) kabi monografiyalar va bir qancha qo‘llanmalar e’lon qilgan.[7]

1961-yilda chop ettirilgan “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” deb nomlangan to‘plam 2 qismdan tashkil topgan: I qism – “Lug‘at”, II qism – “Xorazm shevalarining tasnifi”. I qism Xorazm shevasiga oid so‘zlardan tuzilgan lug‘atdan iborat va unga 2 ta ilova keltirilgan. 1-ilovada turli sohalarga oid so‘z-terminlar jamlangan. Ilovada hayvon nomlari va turlarining shevadagi variantlari, keyin kishi ismlarini va ularning shevadagi va qisqartirilgan variantlari keltirilgan. Bundan tashqari, turli xil sohalarga oid so‘z-terminlar keltirilgan. 2-ilova “Xorazm shevalarining grammatik ocherki” deb nomlangan bo‘lib, shevaga oid so‘zlar grammatik jihatdan puxta o‘rganilib chiqilgan. Ilovaning ahamiyatli jihati shundaki, unda qo‘shimchalar ro‘yxati, ularning izohlari keltirilgan. I qism so‘nggida esa axborot beruvchi shaxslar to‘g‘risida ma’lumot – ismi-familyasi, yoshi va qayerda yashashi keltirilgan.

To‘plamning II qismi Xorazm viloyatining etnografik tasnifi va o‘rganilish masalalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Kitobning oxirgi qismida Xorazm shevalaridagi turli lahjalarga oid turli matnlar transkripsiyada keltirilgan.[8]

---

[2] Dadaboyev X.A, Xolmanova Z.T. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. -T., 2015. 17-b,
[3] Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. -T.,2016. 64-b.
[4] Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. ; Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999.
[5] Norboyeva Sh., Sa’dullayeva N., Atabayeva M. Xorazm shevalaridagi maqol va iboralarning qisqacha izohli lug‘ati. – Urganch: Xorazm, 2022.; Norboyeva Sh., Sa’dullayeva N., Atabayeva M. Xorazm shevalari lug‘ati. – Urganch: Xorazm, 2024.
[6] Жуманиёзов Ш. Хоразм шеваси кичик луғати. – Урганч: Қувончбек-Машхура, 2019. ; Saparniyazova M., Sabirova M. Onaso‘z. – Toshkent, 2023.; Атажанов Н., Атажанов Т. Хоразм шеваси луғати. – Урганч: Ижодкор, 2024.
[7] Saidov Y. O‘zbek dialektologiyasi. -B., 2021. 16-b.
[8] Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.

O‘g‘uz lahjasi leksikasi tadqiqiga oid yana bir muhim manbalardan biri Komil Avaz boshchiligida to‘plangan “Xorazm so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati”dir. O‘zbekiston hududida o‘g‘uz lahjasi vakillarining ko‘pchilik qismi Xorazm viloyatida yashaganligi sababli ham Xorazm shevalari lug‘ati biz uchun muhim manba hisoblanadi. Lug‘at “Xorazm Ma’mun Akademiyasi”ning 1000 yilligi munosabati bilan tuzilgan va 2006-yilgi nashri to‘ldirilgan nashr hisoblanadi. Kitob 2 xil yozuvda: ham krill, ham lotin yozuvida nashr qilingan. Lug‘atning e’tiborli ta’rafi shundaki, so‘zlar transkripsiya bo‘yicha yozilmagan. Bu so‘zlar talaffuzini anglashda biroz qiyinchilik tug‘dirsada, lug‘at ma’naviy qiymatini yo‘qotmagan. E’tiroflisi esa, lug‘atdagi ba’zi so‘zlar uchun she’rlar, maqol yoki qo‘shiqlardan, ba’zan so‘zlashuv nutqidan izohlar keltirib o‘tilgan. Lug‘atda o‘g‘uz lahjasidagi maishiy leksikaga oid 115ta so‘z qo‘llanilgan va fikrimizcha, ularning ko‘pchiligidan neologizmlar o‘rnida foydalanish o‘rinlidir.[9]

Xorazm hududi o‘g‘uz lahjasi tadqiqi bo‘yicha Otanazar Madraximovning “O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi” lug‘ati ham muhim manba hisoblanadi. Lug‘atda Xiva shevadagi tovushlar tizimi, so‘zlarning talaffuzi, so‘zlarning izohi keltirilgan va ular adabiy til hamda eski o‘zbek tili bilan solishtirilgan. Asarda Xeva shevasi fonetikasida: 9 ta unli (a, ä, e, i, ï, o, ö, u, ü) borligi ko‘rsatilgan va ular qanday talaffuz qilinishi, adabiy tilda qaysi tovushlarga to‘g‘ri kelishi aytib o‘tilgan. Unlilarni cho‘ziq va qisqa talaffuzi orqali shevadagi bir nechta so‘zlarni farqlagan. Masalan, yap – bekit, ya:p – ariq; dash – toshmoq, da:sh – tosh; buz – buzmoq, bu:z – muz; qïz – qizmoq, qï:z – qiz bola. Ikki bo‘g‘inli so‘zlarda ham omonimlar keltirgan: dashï – tashimoq, da:shï – uning toshi; ya:g‘ï – dushman, yag‘ï – uning yog‘i; darï – tariq, da:rï – dori-darmon va hk. Singormanizmga ham misollar keltirgan: atasïna – otasiga, apasïna – opasiga, äkäsinä – akasiga, änäsinä – onasiga.

Kitobning lug‘at qismida hudud leksikasiga oid qimmatli so‘zlarning izohi berilgan. Xususan, maishiy leksikaga oid 245 ta so‘zlarni izohlari aytib o‘tilgan[10].

Norboyeva Shukurjon Xayitbayevnaning “Xorazm shevalaridagi kiyim kechak nomlarining sruktur-semantik tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi o‘g‘uz lahjasidagi kiyim-kechak nomlarining o‘rganilishiga oid muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ishda Xorazm shevalaridagi kiyim-kechak nomlari, ularning tadqiqi masalasi va bundan tashqari uning tuzulishi va semantikasiga ahamiyat qaratilgan. Dissertatsiyaning birinchi bobi “Xorazm shevalaridagi kiyim-kechak nomlarining diaxron asoslari” deb nomlanib, unda hudud shevasidagi kiyim-kechak nomlarining tarixiy ko‘lami bayon qilingan. Ikkinchi bob “Xorazm shevalaridagi kiyim-kechak nomlarining lisoniy tarkibi” deb nomlagan. Bobda so‘zlarning tuzilishiga asosiy e’tiborini qaratgan. Uchinchi bob “Xorazm shevalaridagi kiyim-kechak nomlarining onomasiologik tamoyillari” deb nomlangan. Kiyim-kechak nomini bildiruvchi so‘zlarning kelib chiqishi, ularning asoslari keltirilgan. Dissertatatsiya Xorazm shevalaridagi kiyim-kechakka oid so‘zlarni ham tuzilish, ham onomastik jihatdan tahliliga bag‘ishlangan. Kerakli o‘rinlarda so‘zlar ishlatilgan badiiy va turli ilmiy asarlardan (Navoiy g‘azallari, xalq og‘zaki ijodi, lug‘atlar) misollar keltirilgan. Shuningdek, rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar ham keltirilgan: **basanoǯka, kübänkä, kürtkä, majkä, püpäjkä, šäpkä, kepkä, pilotkä, šerst, kofta, yüpkä** kabi[11].

Alimardonov Elyorning “Xorazm dialektal zonasida o‘zbek va turkman shevalarining o‘zaro ta’siri” nomzodlik dissertatsiyasida Xorazm va Turkman shevalarining o‘xshash tomonlarini, bir-biriga ta’sir qilishi naijasidagi o‘zgarishlarni o‘zi aks ettirgan. Dissertatsiyada o‘g‘uz lahjasining leksik tizimi va uning o‘rganilishi bo‘yicha muhim manba hisoblanadi. Dissertatsiyada ikkala tildagi shevalarning uyg‘unligi ochib berilgan. Dissertatsiyaning birinchi bobi “O‘zbek tili massivining areal o‘rganilishi va Xorazm dialektal zonasi” deb nomlangan va unda o‘zbek va turkman shevalarining o‘rganilishi, ikki tilning areal tadqiqi masalari ko‘rib chiqilgan. Ishning ikkinchi bobi “O‘zbek tili Xorazm shevalarining turkman tili (shevalari)ga ta’siri”ga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda dialektal

[9] Xorazm so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati. Tuzuvchi - Komil Avaz - Urganch, 2006.
[10] Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива Шеваси - Урганч, 1999
[11] Норбоева Ш. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док...дисс. автореф. – Тошкент, 2017.

zonadagi turkman shevalariga fokus nuqtasi sifatida Urganch-Xiva, umuman, o‘zbek shevalarining fonetik, morfologik, leksik jihatdan ta’siri tahlilga tortilgan. Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Turkman tili(shevasi)ning Xorazm shevalariga ta’siri va dialektal zonadagi ba’zi izoglossalar xususida” deb nomlanadi va bu qism turkman tili shevalarining xorazm shevalariga ta’siri fonologik jihatdan ko‘rib chiqilgan. Ishning, ayniqsa, birinchi bobi Xorazm shevalarining o‘rganilishi, xususan, o‘g‘uz lahjasi bo‘yicha qilingan ishlar sarhisobi bo‘yicha aniq dalilli ilmiy qo‘llanmadir[12].

XULOSA

Bugun tilimizning rivoji uchun uning shevalari tadqiqi muhim izlanishdir. Chunki, shevalar adabiy tildan ko‘ra ko‘proq unutilgan elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Tilimizni chetdan kirib kelgan so‘zlar egallayotgan bir paytda, adabiy tilda izohi yo‘q so‘zlar o‘rnini shevalardan so‘z olgan holda adabiy til lug‘atimizni boyitsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Albatta buning uchun, shevalarning lug‘at tarkibi va ularning o‘rganilishi muhim manba hisoblanadi. Bundan tashqari, avlodlarga tilimizning har jihatini o‘rganishdagi ilmiy ishlar munosib meros vazifasini o‘taydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dadaboyev X.A, Xolmanova Z.T. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. -Toshkent, 2015.
2. Баскаков Н.А. Тюркские языки. - Москва, 1960.
3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. - Toshkent, 2016.
4. Saidov Y. O‘zbek dialektologiyasi. - Buxoro, 2021.
5. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент, 1961.
6. Xorazm so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati. Tuzuvchi - Komil Avaz - Urganch, 2006.
7. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива Шеваси - Урганч, 1999.
8. Норбоева Ш. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати – Тошкент, 2017.
9. Alimardonov E. Xorazm dialektal zonasida o‘zbek va turkman shevalarining o‘zaro ta’siri. Filolologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati - Toshkent, 2024.

[12] Alimardonov E. Xorazm dialektal zonasida o‘zbek va turkman shevalarining o‘zaro ta’siri. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. - Toshkent, 2024. - 13-b.